Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 373.2
ORCID: 0009-0000-7854-1227

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY SHAXSIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI.

Xabilova Sitora Tursunmurod qizi
Termiz davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: sitoraxabilova7@gmail.com

Annotatsiya: Mamlakatimizda so'nggi yillarda oliy ta'lim sifatini oshirish bo'lajak tarbiyachilarning o'quv tarbiya faoliyatida kasbiy va shaxsiy sifatlarni oshirish, o'qitish samaradorligini oshirishning didaktik shartlari tizimini, ta`limning har bir bosqichlari maqsadlarini aniq belgilash, ular bilan va bir-birlari bilan to'g'ri bog'lanish, bilimlarni o'zlashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning huquqiy me'yoriy asoslarini yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. «Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish» ustuvor vazifalari sifatida belgilangan. Natijada, barcha sohalar uchun zarur yetakchi kadrlar tayyorlash, imkoniyatlari kengaydi.

Ushbu maqolada oliy ta'limmuassasalari bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish masalalarini texnologiyalar yordamida yanada takomillashtirish, tarbiyachilarning o'z-o'zini rivojlantirish vazifalari hamda shaxsiy sifat salohiyatini rivojlantirish uchun nazariy ma'lumotlar berilgan. Yosh tarbiyachilarning kasbiy va shaxsiy qobilyatlarini shakillantirishda pedagogning tajribali malakaga ega bo'lishi o'z kasbiga nisbatan hurmat, bilim, ko'nikma malaka yani BKMni rivojlantirish uchun tavsiyalar berilgan.

Shuningdek talabalarda kasbiy va shaxsiy sifatlarni qay darajada rivojlantirish pedagogik jarayonini takomillashtirish, pedagogik jarayonini samaradorligini oshirish, o'zining ishchanlik faolligini oshirish, ijobiy sifatlarni o'zlashtirish, kabi jarayonlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiyachi, texnologiya, talaba, jarayon, kasbiy sifat, shaxsiy sifat, bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat, kasbiy muvaffaqiyat, ijtimoiy moslashuv, jamoaviy ishlash, innovatsion fikrlash, madaniyatlararo muloqot, interaktiv usullar, axborot almashinuvi.

ПРОЦЕСС РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация: В последние годы в нашей стране проводится системная работа по повышению качества высшего образования, повышению профессиональных и личностных качеств будущих педагогов, повышению дидактических условий для повышения эффективности обучения, четкому определению целей каждого этапа образования, их связи и между собой, овладению знаниями, созданию правовых и нормативных основ подготовки конкурентоспособных кадров. В качестве приоритетных задач определены «повышение уровня охвата высшим образованием до 50% и повышение качества образования». В результате расширились возможности подготовки необходимых руководящих кадров для всех отраслей.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

В данной статье представлены теоретические сведения для дальнейшего совершенствования вопросов развития профессиональных и личностных качеств будущих преподавателей высших учебных заведений с помощью технологий, задач саморазвития педагогов и развития личностного качественного потенциала. Даны рекомендации по развитию профессиональных и личностных качеств молодых педагогов, педагог должен иметь опытную квалификацию, уважение к своей профессии, знаниям, умениям, то есть БКМ.

Также реализуются такие процессы, как совершенствование педагогического процесса развития профессиональных и личностных качеств обучающихся, повышение эффективности педагогического процесса, повышение трудовой активности, освоение положительных качеств и т.д.

Ключевые слова: Педагог, технология, студент, процесс, профессиональное качество, личностные качества, знания, умения, способности, профессиональный успех, социальная адаптация, работа в команде, инновационное мышление, межкультурное общение, интерактивные методы, обмен информацией

THE PROCESS OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL AND PERSONAL QUALITIES OF FUTURE EDUCATORS

Abstract: In recent years, systematic efforts have been made in our country to improve the quality of higher education to improve the quality of higher education, enhance the professional and personal competencies of future educators, improve didactic conditions to increase teaching effectiveness, clearly define the objectives of each educational stage, establish effective communication among educators and students, and ensure meaningful assimilation of knowledge, and and create a legal and regulatory framework for training competitive specialists."Raising the level of coverage with higher education to 50% and improving the quality of education" are defined as priority tasks. As a result, opportunities for training necessary leading personnel for all sectors have expanded.

This article provides theoretical information for the further improvement of the issues of developing the professional and personal qualities of future teachers of higher educational institutions with the help of technologies, the tasks of self-development of educators and the development of personal quality potential. Recommendations are given for the development of professional and personal skills of young educators, the pedagogue should have an experienced qualification, respect for his profession, knowledge, skills, that is, BKM.

Also, processes such as improving the pedagogical process of developing professional and personal qualities in students, increasing the effectiveness of the pedagogical process, increasing one's work activity, mastering positive qualities, etc.

Key words: Educator, technology, student, process, professional quality, personal quality, knowledge, skill qualification, ability, professional success, social adaptation, teamwork, innovative thinking, intercultural communication, interactive methods, information exchange.

Kirish. Bo‘lajak tarbiyachining kasbiy va shaxsiy sifatlarining shakllanishi, talabaning pedagogika oliy o‘quv yurtidagi majburiyati va vazifalariga hamda o‘ziga xos individual qobiliyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Talabaning individualligi aqliy, predmetli amaliy va motivatsion omillar bilan bog‘liq bo‘lib, amaliy faoliyat jarayonida ifodalanadi. Talabaning ijodiy fikrlash, olingan natijalar bilan o‘rtoqlashish, qiziqishlarini muvofiqlashtirish, muammoli vaziyatlarni yuzaga kelganda va ulardan amaliyot jarayonida foydalana bilish kasbiy motivlarning vujudga kelishiga olib keladi.

Har bir talabada kasbiy va shaxsiy rivojlanish o‘ziga xos ravishda ko‘zga tashlanadi. Bo‘lajak tarbiyachining kasbiy mahorati shunday bir idealki, unga intilish kerak bo‘ladi. Kasbiy va shaxsiy shakllanish bu uzoq davom etuvchi jarayon bo‘lib, bir nechta bosqichlarga ajraladi. Bo‘lajak tarbiyachining ijodiy individualligi o‘z ifodasini pedagogik amaliyotda ifodalanish usullarida, o‘z ishini rasmiylashtirishdagi o‘ziga xosliklarda pedagogik vaziyatlarni hal qilishda mustaqil yechimlarni topa bilishda izlanuvchan faoliyatga layoqatning mavjud bo‘lishida faoliyat topshiriqlari hamda usullarini tanlashga erkin yondoshishdan, tashabbuskorlikda o‘z taklif va g‘oyalarini erkin ifodalashda namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Yosh tarbiyachilarda tanqidiy fikrlash sifatlari ham mavjud bo‘lishi lozim.Tanqidiy fikrlash pedagoglarda yangi g‘oyalarni tug‘ilishida yordam beradi. Tanqidiy fikrlash – bu har qanday fikrga tanqidiy munosabatda bo‘lishga, hech narsani dalilsiz qabul qilmaslikka, lekin ayni paytda yangi g‘oyalar va usullarga ochiq bo‘lishga yordam beradigan fikrlash turi. Tanqidiy fikrlash tanlash erkinligi, o‘z qarorlari uchun javobgarlik uchun zaruriy shart.

Kasbiy va shaxsiy sifatlarni rivojlantirishda turli metodlari, strategiya va grafik organayzerlari hamda didaktik usullari o‘quv materialining mazmuniga va hal qilinadigan didaktik hamda tarbiyaviy vazifalarga qarab har xil yo‘sinda qo‘shib va o‘zaro bog‘lab qo‘llanadi. Hozirgi vaqtda mahalliy psixologiyada shaxsning kasbiy rivojlanishini o‘rganish, shakllantirish, rivojlantirish va tuzatishga qaratilgan o‘qitishning turli shakllari va usullarini tavsiflovchi muhim materiallar to‘plangan, ularning asosiy vazifasi talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatida o‘zini anglashiga yordam berishdir. [1,45]

Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy va shaxsiy sifatlarini tayyorgarligini rivojlantirishga oid masalalar bir qancha pedagog olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan. Jumladan; Pedagog X.Abdukarimov o‘zining asarida tarbiyachilik kasbining mohiyatini asoslab, “tarbiyachilikdan ustun turadigan, tarbiyachining o‘rnini bosa oladigan kasb sohibi bo‘lmasa kerak” degan fikrni beradi.

X.Abdukarimov ilmiy tadqiqot ishida bo‘lajak tarbiyachilarda quyidagi ahloqiy sifatlar mujassam bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan [2,56]:

• Bolalarni sevishi kerak;
• O‘z kasbiga sadoqatli bo‘lishi kerak;
• Nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq eta olishi kerak.

Psixologiyada berilgan ta’lim motivlari (motivatsiyasi) ta’riflariga asoslanib, N.Norkulova [3, 56] tomonidan taklif qilingan tarkib bo‘yicha ularning tasnifini ko‘rib chiqamiz. U talabalarda kognitiv motivatsiyada ta’lim olishda quydagi jarayonlarni rivojlantirishda turtki bo‘lishini aytadi:

kognitiv motivlar (yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirish faktlar, hodisalar,);

o‘quv va kognitiv motivlar (bilim olish usullarini o‘zlashtirishga yo‘naltirish, bilimlarni mustaqil egallash usullari);

o‘z-o‘zini tarbiyalash motivlari (qo‘shimcha bilimlarni egallashga yo‘naltirish, ya’ni o‘z-o‘zini takomillashtirishning maxsus dasturini qurish).

Bugungi kunda bo‘lajak tarbiyachilarimiz kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda bir qancha muammolarga uchraydilar:

yangi maqsadlarni belgilay olmasliklari;

ta’limning yangi tuzilmasi o‘rganmaslik;

tashkiliy shakl va uslublarni yangilash e’tiborsizlik;

Ushbu muammolarga maqsadli ravishda o‘zlashtirish tarbiyachilarimizda kasbiy va shaxsiy jarayonlarga tayyorlash hamda kasbiy sifatlarini rivojlantirishda xizmat qiladi.

Tarbiyachi va pedagoglarning ega

bo‘lishlari kerak bo‘lgan shaxsiy xislatlariga bir nechta misol keltirish mumkin: bolalarni yaxshi ko‘rish, ularni sevish, amaliy-psixologik aql-farosatlilik, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik, mehribonlik, kamtarlik, odamiylik, dilkashlik, uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo‘lish, o‘z bilimlarini oshirishga intilish.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Bugungi kunda bo‘lajak tarbiyachilarimiz ushbu tamoyillarini puxta o‘rganishlari zarur. Tamoyillar maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan kutilayotgan natijalarni, pedagoglar tomonidan davlat o‘quv dasturini amalga oshirishda ta’minlanishi kerak bo‘lgan rivojlantiruvchi muhitning xususiyatlarini, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berish va rivojlantirishini belgilab beradi.

Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

- bolalikni o‘ziga xos qadriyat ekanligini tan olish. Bolalik – bu muhim ahamiyatga molik yosh va hayotiy davr. Bolalikning o‘ziga xos xususiyati - bu bolalarning ta’lim olish tajribasi natijasida kattalardan ko‘ra ko‘proq o‘rganish va o‘zgarish qobiliyatiga ega ekanligidir. Bolalik – bu baxtli bolalik huquqi tan olinadigan, bola rivojlanishining muhim bosqichi.

-bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish. Barcha bolalar katta imkoniyat egasi bo‘lib dunyoga keladi va har biri tug‘ma iste’dodga ega. Har bir bola o‘ziga xos individualdir. Barcha bolalar o‘z salomatligi va farovonligini himoya qilish, mustahkamlash, shuningdek, sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanish huquqiga ega.

- bolalar, shu jumladan, alohida ehtiyojli bolalar ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida tan olinadi va faoliyat turini tanlash, rejalashtirishda ishtirok etish, bilimga bo‘lgan tabiiy qiziqishlarini qondirish orqali ularning ta’lim olishi va rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

- maktabgacha ta’lim – parvarish, ta’lim va tarbiyadagi uyg‘un jarayondir; u bolaning barcha rivojlanish sohalarida shakllanishini ta’minlaydi; bu ta’lim va tarbiya jarayonida barcha rivojlanish sohalarining o‘zaro bog‘liqligini, shuningdek, ta’lim olishning turli xil va har tomonlama imkoniyatlari hamda har bir rivojlanish sohasi bo‘yicha integratsiyani ta’minlash zarurligini belgilaydi.

- bolaning sog‘lig‘ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta’minlash.Bolaning turli ehtiyojlarini, shu jumladan, harakatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish; faol o‘yinlar va kundalik jismoniy mashqlar orqali bolalar o‘zlarining his-tuyg‘ularini, yirik va mayda motorika ko‘nikmalarini rivojlantiradilar; harakatda atrof-olamni o‘rganadilar va turli predmetlarni boshqaradilar; o‘z tanasining ta’sir va imkoniyatlarini farqlay oladilar, unga g‘amxo‘rlik qilishni va sog‘lom turmush tarzini qabul qilishni boshlaydilar

- o‘yin orqali ta’lim olish va rivojlantirish. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda muhim yondashuvdir. O‘yin quvonch keltiradi va bolalarni rag‘batlantiradi, ularga yangi ko‘nikma va bilimlarni o‘rganishga, o‘zini va atrofidagi dunyoni bilishga imkon beradi. Maktabgacha ta’lim bolaning o‘yin huquqini tan oladi, o‘yinning bola uchun muhimligini va uning individual rivojlanishi, ta’lim olishi va farovonligiga ko‘maklashishdagi pedagogik imkoniyatlarini tan oladi.

- maktabgacha ta’lim tashkilotining oila, mahalla, maktab bilan hamkorligi. Bolaning farovonligi uning oila a’zolari va yaqinlarining maktabgacha ta’lim tashkiloti ahamiyatini tushunishiga bog‘liq. Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat ta’lim va tarbiya jarayoniga qatnashishga jalb qilinganda va o‘z hissasini qo‘shganda bolalar yaxshiroq ta’lim oladilar va rivojlanadilar.

- milliy, tarixiy va madaniy an’analar, ma’naviy boyliklarni tan olish va boshqa xalqlar madaniyatiga hurmatda bo‘lish, bolalarning o‘z milliy madaniyati, tili, an’analarini hurmat bilan e’tirof etilganda

ularni bilim olishga bo‘lgan intilishi va qiziqishi yanada ortadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash-bu jamoaviy ish bo‘lib,uni amalga oshirishga maktabgacha ta’lim tashkilotining direktori mas’uldir.

Ushbu tamoyillar bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilar ta’lim va tarbiya jarayonining asosini tashkil etib, pedagoglarga davlat o‘quv dasturini rejalashtirish va amalgn oshirishda, har bir bolaga ta’lim berish va rivojlantirish bo‘yicha pedagogik hamda amaliy qarorlar qabul qilishda qo‘llanma bo‘lib hisoblanadi.

XULOSA. Talabalarning kasbiy va shaxsiy tayyorgarligini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, mamlakatimiz ta’lim tizimining global miqyosda raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Bu jarayon, talabalarga zamonaviy pedagogik usullar, innovatsion ta’lim texnologiyalari va amaliy tajribalar orqali bilim va ko‘nikmalarni kengaytirishga yordam beradi. Xorijiy o‘qituvchilar va mutaxassislar jalb etish, o‘z tajribalari va bilimlarini mahalliy o‘qituvchilar bilan bo‘lishish imkoniyatini yaratadi.

Demak, ajdodlarimizni g‘oyasini takomillashtirish evaziga hozirgi zamon ta’lim bosqichiga ko‘tarish mumkin va bu jarayonlar zamon bilan hamnafas tarzda rivojlanib, taraqqiy etib boraveradi. Bunda bo‘lajak tarbiyachilarimiz o‘z kasbiy faoliyatini boshlaganida yetarli darajada pedagogik mahoratga bilmasliklari, mutaxassislik fanlarini chuqurroq o‘rganmasliklari, texnologiyalarni bilmasliklari kasbiy hamda shaxsiy sifatlarni rivojlantirmasliklar juda ko‘p qiyinchiliklarga duch keladilar.

Olim G.S.Gramovaning fikricha hozirgi kunda talabalarning katta qismi tarbiyachi-pedagog bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan shaxsiy rivojlanishning **yetarli** darajasiga ega emas. Bunga sabab kasbiy tanlov **motivlarining** noaniqligi, ko‘plab bo‘lajak pedagoglarda kasbiy sifatlarning shakllanmaganligi deb izohlasa talabalarning aksariyatida **kasbiy yetuklik** darajasi past ekanligini, N.N Azizxodjayev [4,45] tomonidan o‘rganilgan. Shuningdek, har bir bo‘lajak tarbiyachi o‘z kasbiga birinchi qadam qo‘yganda yangi jamoaga qo‘shilganida ma’lum qiyinchiliklarini boshdan kechirishi, tarbiyachining kasbiy yetuklikka erishishi boshqa kasb egasiga qaraganda murakkabligi uni muvaqqiyatli shakllanishi va rivojlanishi uchun unga ta’lim tashkilotlari yoki ta’lim jarayoni olingan pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarning yetarli emasligi G.N.Ibragimovning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Зеер Э.Ф. Психология профессий: учеб. пособие для студентов вузов. 2-е изд., перераб. и доп. М.: Академический Проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2003. 336 с.

2.Абдукаримов Х. Профессионалное воспитание личности учителя впротсессенепрерывногопедагогического образования: Автореф. дисс. …докт. пед. наук. – Т.,1997. – 46 с

3. Norkulova N.T. Yoshlar ma’naviyatida affiliatsiya motivatsiyasi psixologiyasi. Monografiya. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2015. – 152 b.

4. Azizxodjayev N.N.Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.Darslik T.;TDPU.2006

5.Gramova.G.S Subeknost kak osnova professionalizma budeshego pedagoga. Uchebno-metodichiskoe posobie.Moskva:2012.130 s